

Saytimiz: [baxtiyor.uz](http://baxtiyor.uz)

Telegramdagi kanalimiz: [@baxtiyoruz](https://t.me/baxtiyoruz)

SAYTIMIZ VA KANALIMIZ MEHMONI BO'LIB O'ZINGIZ IZLAGAN  
NARSANI TOPISHINGIZGA ISHONAMIZ.

# “YANGI YIL BAZMI”

Maktabning katta zali yangi yil bayramiga monand bezatiladi. Zal o'rtasida archa chiroyli qilib bezatilgan, mehmonlar uchun o'rindiqlar tayyorlangan. Barcha qatnashuvchilar turli kostyumlarda kelishgan. Hammada bayram kayfiyati.

Boshlovchilar davraga chiqib keladi.

## **1-boshlovchi:**

Assalomu alaykum, aziz davramiz qatnashchi- lari!

## **2-boshlovchi:**

Assalomu alaykum, qadrli mehmonlar, hurmatli hamkasabalar.

## **1-boshlovchi:**

Bugungi “Yangi yil bazmi” bayram karnavalimizga xush kelibsizlar.

## **2-boshlovchi:**

Avvalambor sizlarni yaqinlashib kelayotgan yangi yil bilan chin dildan muborakbod etamiz.

## **1-boshlovchi:**

Sizlarga sogʻlik, baxt, uzoq umr, ishlaringizda omad tilaymiz.

Yangi yildagi ishlaringizda rivoj tilaymiz.

## **2-boshlovchi:**

Keling bayram kechamizni ajoyib bir qoʻshiq bilan boshlaymiz.

(Qoʻshiq)

## **1-boshlovchi:**

Yangi yil bayrami yil boshlanishi qadimda turli fasllarda nishonlangan. Jahonning koʻpgina mamlakatlari Grigoryan taqvimi boʻyicha yangi yilni nishonlay boshlaganidan soʻng XX asrda Oʻzbekistonga ham bu anʼana kirib kelgan.

Mustaqillikdan soʻng 1992 yilning 3 iyulida qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasida bayramlar kunlari” toʻgʻrisidagi Qonun asosida 1 yanvarъ – Yangi yil bayrami deb belgilandi.

## **2-boshlovchi:**

Darhaqiqat yangi yil bayrami juda koʻp mamlakatlar qatori bizning ona diyorumizda ham ajoyib tantanalar bilan nishonlanadi. Kelinglar dasturimizning avvalida davramizga Qorbobo va Qorqizni taklif qilamiz. Marhamat Qorbobo va Qorqiz, davramizga xush kelibsiz.

Qoʻshiq. qorbobo va qorqiz raqsga tushadi).

## **1-boshlovchi:**

Orziqib kutilgan aziz mehmondek  
Tashrif buyurmoqda Yangi yilimiz.  
Qalbimiz yorishib nurli osmondek,  
Goʻzal his-tuygʻuga toʻlar dilimiz.

Yangi yil kutmoqlik ezgulik tilab,  
Ulug‘ ahd sanalur har xonadonda.  
Shodon chehralarda gul ochar xanda.  
Orzular mazmuni – tinchlik, omonlik,  
Gulzordek yashnasin ona-yurt bog‘i.

## **2-boshlovchi:**

Aslo tark etmasin erk, farovonlik,  
Abad porlayversin Vatan bayrog‘i.  
Yillar o‘taverar bo‘g‘inma-bo‘g‘in,  
Hayot zanjirida oltin xalqadek.  
Yurakka joy aylab yurt ishqo cho‘g‘in,  
Olg‘a boshlayverar bizni darg‘adek.  
Peshona terimiz bilan o‘lkamiz  
Dovrug‘in olamga taratmoqdamiz.

## **1-boshlovchi:**

Bugungi bayram karnavalimizga biz bir guruh san‘at ahillarni taklif  
etganmiz. Hozir navbatni ...qiziqchilar guruhiga beramiz.

(Yangi yil hazillari).

**2-boshlovchi:** Endi navbat tumanimizning xush ovozi xonandasi .....  
beramiz.

(Qo‘shiq yangraydi). **1-boshlovchi:**

Barchamiz yaxshi bilamizki Yangi yil bayramlari hech qachon  
Qorbobo va Qorqizsiz o‘tmagan. Hozir tabrik uchun so‘zni qorbobodan  
eshitamiz.

(Qorboboning tabrigi)

Rahmat qorbobo.

**2-boshlovchi:**

Biz bugungi bayram dasturimizda eng chiroyli kostyumlar tanlovini e'lon qilgan edik. Hozir shu tanlov g'oliblarini taqdirlash uchun so'z navbatini maktabimiz direktori .....dan so'raymiz.

Rahmat. Marhamat, barchangizni raqsga taklif etamiz.

(Qo'shiq yangraydi).

**1-boshlovchi:**

Yana elimizda muqaddas ayyom,  
Kutyapmiz Yangi yil tongini xursand.

Muborak bo'lg'usi shu qutlug' bayram –

Qutlug' tilagimiz dillarga payvand.

Kirib kelayotgan Yangi yilimiz muchal taqvimi bo'yicha .....yili ekan. Bu yil aytishlaricha to'kin-sochin, serhosil va osudalik yili bo'lar ekan. Sizlarni Yangi yil bilan yana bir bor tabriklaymiz.

**2-boshlovchi:**

Bayramona kayfiyat sizlarni yil davomida tark etmasin, chehrangizdan tabassum, dasturxoningizdan qut- baraka arimasin. Bayram dasturimiz nihoyasida sizlarni zalda tashkil qilingan Yangi yil mavzusidagi rasmlar ko'rgazmasiga taklif etamiz, marhamat.

**1-boshlovchi:**

Xayr, salomat bo'linglar. Kel, yana shod ko'nglimizni ayla shodon, Yangi yil, Senda ijrosin kutar ko'p orzu-armon, Yangi yil.

